

## KORROZIYAGA BARDOSHLILIKNI OSHIRISH UCHUN AVTOMOBIL DETALLARI SIRTALARINI PUXTALASH USULLARI

To‘rayev Shahzod Muyiddin o‘g‘li

Qarshi muhandislik–iqtisodiyot instituti magistratura talabasi

E-mail: [shahzodt3103@gmail.com](mailto:shahzodt3103@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ishda tajavuzkor korrozion muhtlarda ishlaydigan avtomobilarning konstruksion po‘latlardan tayyorlangan javobgar detallarining korroziyaga bardoshligini ularning sirtlarini maqbul diffuzion boyitish usullarini qo‘llash bilan erishish imkoniyatlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Puxtalash, sirtni boyitish, diffuzion qoplama, korroziyaga bardoshlilik.

Avtomobillardan turli maqsadlarda foydalanish sharoitlari ularni uzoq muddat ish qobiliyatini yuqotmasdan ishlatilishiga, ularni tayyorlash jarayonida unini tashkil etuvchi uhim konstruktiv elementlarining ishonchligiga zaruriy talablarni qo‘yadi. Bunda asosiy kompleks tadbirlar korroziyaga bardoshlilik va yejilishga chidamlilik ko‘rsatkichlarini ta’minlash kabilar hisoblanadi.

Metalllar sarfini kamaytirish, mashina va mexanizmlarning ishrnchliliginini ta’minlash masalalari asosan ikkita yo‘l bilan: maxsus legirlangan po‘latlar va qotishmalar qo‘llash, hamda detallarni tayyorlash va ta’mirlashda ularning sirtida qoplamar olish kabilar bilan yechiladi.

Hozirgi paytda mashinasozlik sanoat kompleksida maxsus legirlangan po‘latlar va qotishmalarni ishlab chiqarishda kamyob va qimmatbaho materiallar hamda komponentlardan foydalanganligi uchun detallar sirtida qoplamar qoplash va ularning sirtlarini puxtalashning takomillashgan texnologiyalarini qo‘llashga aloxid e’tibor berilmoqda.

Avtomobilsozlikda ham detallarning korroziyaga bardoshliliginini va yejilishga chidamlilik xossalarni oshirish maqsadida sirtlarda turli xildagi katodli va anodli turlardagi sirt mustahkam qoplamar olish usullari: qoplamar olish uchun eritib qoplash, purkash orqali metallizatsiyalash, galvanik qoplash va diffuzion boyitish hamad ularning o‘zaro kimbinatsiyalashgan usullari qo‘llanilib kelinmoqda.

Keltirilgan usullarning ichida diffuzion qoplamar olish usullari boshqa turdagil o‘stirilgan qoplomalarga nisbatan qoplamaning asosiy metall bilan mustahkam adgezion bog‘lanish hosil qilishi, qoplama hosil qiluvchi moddaning metall kristall

strukturalariga kirib borishi, uning atomlar ko‘rinishida singishi xususiyatlari himoya qilinayotgan sirtda fizik-mexanik va fizik-kimyo xossalari yaxshilaydi. Shuningdek diffuzion boyitish usuli bilan sirtda avvaldan ma’lum bo‘lgan hossalarga ega bo‘lgan qoplamlar olish mumkin.

Bundan tashqari diffuzion qoplamlarda boyitiuvchi element konsentratsiyasining sirt chuqurligi bo‘yicha o‘zgarib, ya’ni kamayib borishi sirtda musbat gradiyent hossalarni hosil qilish va zaruriy strukturavay hamda fazaviy o‘zgarishlarni amalga oshirish bilan sirtning u yoki bu xossalarni o‘zgartirishga erishish imkoniyatlarini beradi. Shuningdek turli xil murakkab shakllarga va yuza g‘adir-budirliklariga ega bo‘lgan detallarda ham elementlar bilan boyitish hisobiga bir xil qalinlikdagi diffuzion qatlam olish mumkin.

Metallar va qotishmalarga kimyoviy-termik ishlov berish (KTIB) yoki diffuzion boyitishda ulardan tayyorlangan buyumlar yuqori haroratlargacha qizdirilib va belgilangan haroratda faol gazlarda, suyuqliklarda yoki qattiq muhitlarda ushlab turiladi va buning natijasida muhitdagi boyituvchi elementning harorat va jarayonning davomiyligaga bog‘liq ravishda sirtga diffuziyasi sodir bo‘lib sirt kimyoviy tarkibi, strukturasi va xossalari o‘zgaradi.

KTIB usullarining asosiy afzalliklariga ishlov berishning nisbatan arzonligi, ishlab chiqarish sharoitida keng miqyosda qo‘llanilishi mumkinligi va metall o‘zagi xossalarni saqlab qolgan holda faqat sirtda yupqa qatlamlarni olishning texnologikligi kabilar hisoblanadi. Shuningdek darayonning texnologik rejimlarini va boyituvchi muhitning tarkibiy o‘zgarishlariga bog‘liq ravishda turli xildagi sirt struktura-fazaviy holatlariga erishish mumkin.

Avtomobilsozlikda detallarning korroziyaga bardoshliligini oshirishning samarali usullaridan biri termodiffuzion boyitish usullarida sirtda olingan termodiffuzion qoplamlar hisoblanadi. Bunda boyituvchi muhitga boshqa komponentlarni ma’lum miqdorda qo‘sish bilan shu komponent bilan asosiy boyituvchi element hosil qilgan qoplamlarni legirlash orqali uning hossalarni keng oraliqlarda o‘zgartirish, ya’ni modifikatsiyalash mumkin. Termodiffuzion qoplamlar asosan detallarni ta’mirlash ishlarida qo‘llaniladi.

Mashina detallarining korroziyaga bardoshliligini va boia ekspluatatsion kompleks xossalarni oshirish yo‘nalishida yangi KTIB usullarining ishlab chiqilishi muhim hisoblanadi. Oxirgi yillarda avtomobilsozlikda detallarning sirtida galvanik qoplamlar qoplash usullari ekologik jihatdan zararli bo‘lganligi uchun o‘rniga azotlash, oksiazotlash va karbooksiazotlash kabi usullar keng qo‘llanilmoqda. Bu usullar faqatgina sirtni puxtalash uchungina emas balki detallarning korroziyaga bardoshliligini oshirish uchun ham eng samarali usullardan biri bo‘lib qolmoqda.

Korroziyaga qarshi azotlash usuli asosan 600-750 °S haroratlar oraliqlarida 15 min dan 2-3 soat vaqt oraliqlarigacha ammiakli muhitlarda o'tkazish tavsiya qilinadi. Bunda azotlangan qatlamni qo'shimcha ravishda kislorodli muhitlarda oksidlash (oksiazotlash) po'latlardan tayyorlangan detallarning korroziyaga bardoshliligini keskin oshirish imkonini beradi.

Germaniyaning «Degussa» firmasi tomonidan detallarning korroziyaga bardoshligini oshirish maqsadida suyuqlikda azotlash jarayonidan oldin va undan keyin oksidlar va nitridlar eritmalarida oksidlash jarayoni amalga oshiriladi va bu jarayon "Tenifer-jarayon" deyiladi. Shuningdek bu jarayon "Q-P-Q" jarayon nomi bilan ham ataladi. Bu jarayonlar suyuqlik muhitida amalga oshirilganligi va boyituvchi muhit sifatida turli xildagi zararli tuzli eritmalaridan foydalanilganligi sababli, ekologik jihatdan toza bo'lgan gazli muhitlarda azotlash jarayoni yangi modifikatsiyalashgan usullari ishlab chiqilmoqda.

Gazli muhitlarda azotlash jarayonining modifikatsiyalashgan usullaridan biri "Nitrok" jarayon deb nomlanib, bunda gazli muhitda azotlash jarayoni 550-740 °C haroratlar oraliqlarida 2-4 soat davomida olib boriladi va keyingi bosqichda oksidlash jarayoni turli kislorodli muhitlarda 10-30 sek davomida amalga oshiriladi. Nitrid yoki karbonitrid diffuzion qatlamlarni oksidlash natijasida uning sirtida yupqa oksil pylonka hosil qilinadi va sirt qatlamda strukturaviy o'zgarishlar sodir qilinib detallarning korroziyaga bardoshliliği va yeyilishga chidamliligi oshiriladi.

Rossiya Federatsiyasi "AvtoZIL" zavodida sirpanib ishqalanish sharoitlarida ishlaydigan po'latdan tayyorlangan detallarni nitrotsementitlash, ya'ni bir vaqtning o'zida azotlash va uglerodlash jarayonidan so'ng 1-2 sek davomida kislorod muhitida oksidlash jarayoni amalga oshirilib karbonitrid diffuzion qatlam sirtida yupqa oksid qatlam hosil qilinadi va buning natijasida sirtning musbat gradiyent hossleri hisobiga ishqalanish davomida yeyilishga chidamliligi oshiriladi.

Shuningdek "AvtoVAZ" zavodida nitrotsementatsiya jarayonini gazli muhitlarda 560-580 °C haroratlarda 2-5 soat davomida endogaz va ekzogaz muhitlarida olib borilib detallar sirtida turli strukturaviy-fazaviy holatdagи korroziyaga bardoshli nitrooksid diffuzion qatlamlar olish usuli galvanik usullar o'rniga qo'llanila boshlangan.

Hozirgi paytda gazli azotlash usulining kislorodli muhitlarda bir vaqtning o'zida oksidlash (oksiazotlash), dastlab oksidlash bilan to'siq oksid qatlam hosil qilinib keyingi bosqichda azotlash (to'siqli azotlash), azotlash bilan oksidlash jarayonini kombinatsiyalashgan holda qo'llash orqali (nitrooksidlash) turli tarkibdagi po'latlarning sirtida modifikatsiyalangan va legirlangan gradiyent strukturalar va nitrid fazaviy tarkiblar kompozitsiyalari olinib korrozion faol muhitda va yuqori yuklanish ta'sirida ishlaydigan avtomobil detallarining sirtlarini puxtalash uchun qo'llanilmoqda.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ: (REFERENCES)

1. Juk N.P. Kurs teorii korrozii i zashiti metallov. -2-ye izd. –M.: OOO TID «Alyans», 2006. - 472 s.
2. Maysuradze M.V., Rijkov M.A., Belikov S.V. i dr. Sementatsiya, nitrotsementatsiya i azotirovaniye stalnix izdeliy. –Yekaterinburg.: Izd-vo Ural. un-ta, 2021. -102 s.
3. Pye D. Practical Nitriding and Ferritic Nitrocarburizing. ASM Publication, 2003. -256 p.